# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 2

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 794 sahifa.*
*E’lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “OʻIRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Poʻlatov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d., TAQU katta oʻqituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Fargʻona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boʻlimi boshligʻi
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta oʻqituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, OʻzR Tabiat resurslari vazirligi, OʻzR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ........ 10
**Baxtiyor Islamov**

Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ........ 12
**Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G‘oipnazarov**

Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ........ 18
**Zufarova Nozima Gulamiddinovna**

Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko‘rsatkichlari va ekologik muammolar ........ 26
**Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich**

Yashil budjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari ........ 32
**Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari ........ 37
**Yormatov Ilmidin Toshmatovich**

Transport vositalari va yo‘llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ........ 41
**Agzamov Shaxboz Akmalovich**

Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ........ 46
**A. X. Salamov**

Biznes-reja baliqchilik xo‘jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ........ 50
**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog‘liqligi ........ 57
**Axmediyeva Aliya Toxtarovna**

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ........ 65
**Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich**

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari ........ 69
**Shamsiyev Nodir Muratovich**

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari ........ 74
**Shagazatov Oybek bahodirovich**

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishlari ........ 78
**Davlatov Sanjar Abdimannonovich**

Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ........ 82
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo‘nalishlari ........ 86
**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ........ 91
**Yoriyeva Farangiz Murodillayevna**

Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi ........ 96
**Nazarova Umida Avazovna**

Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari ........ 100
**Mirzaxodjayev Alisher Botirovich**

Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ........ 105
**Mirzayev Musurmon Umidullayevich**

Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning oʻrni va ahamiyati.....110
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili.....115
**Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich**

Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....121
**Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi**

Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari.....125
**Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich**

Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан.....131
**Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна**

Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....137
**Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich**

Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....143
**Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva**

Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....150
**Sultonboeva Munira bahodirovna**

Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....156
**Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon oʻgʻli**

Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта.....161
**С. С. Алиева, А. Назаров**

Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....169
**Sheraliyeva Saida Azatovna**

Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari.....172
**Ergashev Sarvar Xudoynazarovich**

Инклюзивное образование и его особенности.....177
**Зайнутдинова Умида Джалоловна**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yoʻllari.....181
**Qurbonov Muxiddin Abdullayevich**

Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yoʻllari.....186
**Hakimov Ulugʻbek Furqat oʻgʻli**

Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....190
**Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon Gʻulomjon oʻgʻli**

Oʻzbekistonda sugʻurta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....195
**G. Adilova**

Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini oʻyinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....199
**Mardiyev Nurali**

Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....205
**Yaxyayeva Inobat Karimovna**

Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili.....209
**Borotov Sharofiddin Jumaqul oʻgʻli**

Koʻchmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari.....215
**Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari.....223
**Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna**

Oʻzbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar.....228
**Eshimov Alisher Dusmurodovich**

Tashqi savdoda notarif usullarni qo‘llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) ....236
**Norqobilov Akobir Iso o‘g‘li**

Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari....242
**Rabbimov Elbek Abdulloyevich**

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari ....247
**Imonqulov Nuriddin Qo‘shmon o‘g‘li**

Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari....252
**Shoymardonov Orziqul Jo‘ra o‘g‘li**

Majburiy tibbiy sug‘urtaning vujudga kelishi va o‘ziga xos xususiyatlari....258
**Kenjayev Soxib Sayfiyevich**

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish ....262
**Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli ....268
**Shokirov Mirkamol Mirolim o‘g‘li**

Boshqaruv hisobida mas’uliyat markazlarini tashkil etish masalalari....276
**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo‘llari ....279
**Kultayev Farxod Shavkatovich**

Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish....283
**Normo‘minov Temurbek Sheraliyevich**

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo‘llari ....286
**To‘ychiyev Otabek Shamshiyevich**

Venchur kapitalining mohiyati va O‘zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari....290
**Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna**

Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash zarurati....295
**Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug‘bek o‘g‘li**

Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta’sirini ko‘p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish....299
**Abdunazarova Shahnoza Norqo‘chqor qizi**

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘llari....304
**Abdullayev Boburjon Akbaralievich**

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o‘rni ....308
**Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li**

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish ....312
**Mirzayeva Nargiza Batirovna**

Talabalarning oilali bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv....316
**O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov**

Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation....321
**Mukhlisa Ikramova**

Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o‘rni va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri....327
**Yusupov Muhammadali Soxib o‘g‘li, J.D. Xojiyev**

Temir yo‘l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajriba....331
**Kadirova Sharofat Amonovna**

Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлйўловчи” ....334
**Н. Э. Кахарова**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ....339
**Sharipov Bobur Anvar o‘g‘li**

“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish ....344
**Musyeva Shoira Azimovna**

Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari ....350
**M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova**

Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans....355
**Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova**

Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati ....359
**Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich**

Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag‘al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari ....364
**Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma’rifat Umarovna**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari ....371
**Tursunova Shaxnoza Farxod qizi**

Процессы цифровизации АО “Hududgazta’minot” ....375
**Хусанов Кахрамон Нишонович**

O‘zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo‘llari....380
**Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li**

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi ....383
**Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich**

Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta’sirini ekonometrik modellar bilan baholash....388
**Saydullayev Azamat Jo‘raqul o‘g‘li**

O‘zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari....396
**Sh. Madraimov**

Kapital bozorida sug‘urta kompaniyalar institutsional investor sifatida....399
**Xasanova Lola Mamasharifovna**

Yangi O‘zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko‘p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari ....402
**B. B. Berkinov**

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari ....411
**G‘afurov Umidjon Bahodir o‘g‘li**

Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta’minlangan aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida) ....415
**Karimov Bekzodjon Ilxomovich**

Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari ....422
**Pardayev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li**

Финансы или корпоративные финансы....428
**Уринов Бобур Насиллоевич**

In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features ....434
**Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi**

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari ....439
**Jo‘rayev O‘ktam Panji o‘g‘li**

Сокращение уровня бедности в Узбекистане ....................................................................................445
**Амирджанова Ситора Суннат кизи**

Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash ....................................450
**S. B. Inoyatov**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ....................................................455
**Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li**

Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari ....................................................462
**Ollokulova Feruza Mansurovna**

Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili ....................465
**Usmanov Baxodir Baxtiyorovich**

Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati ....................................................................471
**Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna**

Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari ....................................................475
**M. Yuldosheva**

Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari ....................................................................482
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili ....................489
**Mirzayev Mirza Abdullayevich**

Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi ....................................................................494
**Saydullayeva Saodat Abdumajidovna**

Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi ....................................................501
**Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna**

Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish ..........................505
**Karamatova Noiba Husnitdinovna**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari ..............................................512
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich**

Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ ............................519
**Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович**

O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari ....................................................................524
**Sultanov Baxram Begdullayevich**

Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях ....................................................528
**Самигова Гуландом Абдужаббаровна**

Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri ..................................536
**Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi**

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin ..................................541
**Muminov Akmal Tulkunovich**

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri ....................................545
**Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich**

Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ..........................550
**Shukurov Ilxom Safarboyevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari ........ 557
**Umarova Moxigul Maxmayunus qizi**

Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi ........ 562
**Yuldashev G'iyos Turabekovich**

Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari ........ 566
**Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna**

Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ........ 572
**Boltayev Abror Sayitmuradovich**

Секреты интересного урока в начальной школе ........ 579
**Гараева Олеся Владимировна**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni ........ 582
**Ibragimova Gulchehra Toxirovna**

Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi ........ 586
**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich**

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida ........ 593
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich**

Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control ........ 599
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich**

Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari ........ 604
**Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich**

Оценка экономической эффективности использования фотоэлектрической тепловой установки ........ 608
**Жураев Ислом Рахматович, Юлдошев Исроил Абриевич, Жураева Зухра Исламовна**

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro tajriba ........ 614
**Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich**

Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi ........ 621
**Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li**

Oliy ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi sabablari ........ 625
**Abdukadirova Kamola Azimovna**

Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ........ 629
**Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li**

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha infrastruktura holati ........ 636
**Dehqonov Burxon Rustamovich**

Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari ........ 642
**Kamilov Abror Anvarovich**

O'zbekistonda uylarning energiya samaradorligini oshirish ........ 647
**Dodiyev Fozil O'tkurovich**

O'zbekistonda talant menejmentni tatbiq etish istiqbollari ........ 653
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari ........ 658
**Muxammadiyev Ramz Zoirjon o□g□li**

Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda resurs xarajatlarini optimallashtirish: tahlil va boshqarish ........ 663
**Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich**

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug'urta institutlarining tutgan o'rni ........ 673
**K. A. Sharipov, D. Jo'rayev**

Tadbirkorlik nazariyasining evolyutsion talqini ........ 678
**Aripov Oybek Abdullayevich**

Enhance Export Potential of Private Entrepreneurship and Small Venture ........ 683
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**

Mintaqa barqaror rivojlanishini cheklovchi ekologik omillar tahlili ........ 690
**Adilova Marg'uba Tursunaliyevna**

Improving the Efficiency of Industrial Enterprise Activities in the Age of Digital Technologies ........ 698
**Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi**

A study of green marketing practices in the retail industry – Advantages and disadvantages ........ 705
**Davronova Zilola Gulomovna**

Tijorat banklarining korporativ xizmatlarini transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish ........ 709
**Farmanova O'g'iloy Aliqul qizi**

Davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari ........ 715
**Maxmudov Azamat Normuradovich**

Xorijiy banklarning moliya injiniringi mahsulotlari va rivojlanish istiqbollari ........ 721
**Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich**

O'zbekistonda turizm xizmatlari imkoniyatlari: muammo va yechimlar ........ 727
**Fayziyev Oybek Raximovich, Xalikov Saydilla Abdraxmanovich**

Sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiya modelini yaratish ........ 734
**Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Axmedova Rayxona Jasurbek qizi**

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari ........ 741
**Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li**

Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy texnika va texnologiyalarning xususiyatlari ........ 747
**Xusanov Ulugbek Nishanovich**

Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar ........ 752
**Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi**

Mulkchilikning iqtisodiyotdagi ahamiyatini qiyosiy tahlil qilish (O'zbekiston va Shvetsiya misolida) ........ 757
**Odil Norboyev**

Ipoteka krediti riskining ayrim nazariy jihatlari ........ 761
**Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi**

Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari va unda O'zbekistonning ishtiroki ........ 764
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, Bobobekova Nargiza Baxtiyorovna**

Tijorat banklari fond bozoridagi aksiyalar narxini o'zgarishini ebo moduli orqali aniqlashning ekonometrik tahlili ........ 769
**Yuldoshova Manzura Ollashkurovna**

Organizational mechanism of sustainable development of the tourism industry, role and application of technologies ........ 780
**Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich**

Banklarda risklarni diversifkatsiyalashning mohiyati va ahamiyati ........ 787
**Baxriddinov Sharofiddin**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# BANKLARDA RISKLARNI DIVERSIFKATSIYALASHNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

**ORCID: 0000-0001-7899-0217**

**Baxriddinov Sharofiddin**

I.f.f.d., Toshkent moliya instituti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida risklarni diversifikatsiyalashning mohiyati va ahamiyati oʻrganib chiqilgan. Xususan xorijiy iqtisodchi olimlarning risk tushunchasiga bergan ta’riflari atroflicha sharhlangan va umumiy xulosa keltirilgan.

Kalit soʻzlar: tijorat banklari, bank risklari, diversifikatsiya, globallashuv, omonatchilar, investorlar, kredit.

Abstract: This article examines the essence and importance of risk diversification in commercial banks. In particular, the definitions given by foreign economists to the concept of risk are explained in detail and a general conclusion is drawn.

Key words: commercial banks, banking risks, diversification, globalization, depositors, investors, credit.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность и значение диверсификации рисков в коммерческих банках. В частности, подробно объяснены определения, данные зарубежными экономистами понятию риска, и сделан общий вывод.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские риски, диверсификация, глобализация, вкладчики, инвесторы, кредит.

## KIRISH

Risk bozor iqtisodiyotining iqtisodiy kategoriyalaridan biri boʻlib, bank risklari bevosita banklar paydo boʻlgan davrda vujudga kelgan va hozirgi kunga qadar rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Chunki risk bozor iqtisodiyotining ajralmas oʻzagi hisoblanadi, shuning uchun bank risksiz operatsiyalarni izlash emas, balki riskni samarali diversifikatsiyalash orqali uning darajasini pasaytirishi maqsadga muvofiq. Albatta, bu jarayonda bank risklarini diversifikatsiyalash muhim yshnalishlardan hisoblanib, mazkur maqolada banklarda risklarni diversifikatsiyalashning iqtisodiy mazmuni va asosiy tamoyillarini atroflicha qiyosiy tahlil qilamiz.

Demak, bank risklarini diversifikatsiyalash zaruriyati bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi va xalqaro iqtisodiyotning globallashuv sharoitida muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari omonatchilar, investorlar, qarz (kredit) oluvchilar, mijozlar bilan oʻzaro munosabatlari doimo kengayib boradi, bu oʻz navbatida risklarni samarali diversifikatsiyalashga boʻlgan ehtiyojni chuqurlashuviga olib keladi.

Chunki, banklarning, nafaqat banklarning balki barcha moliya-kredit muassasalarning faoliyati xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatidan farqli oʻlaroq, turli darajadagi risklar bilan chambarchas bogʻliqdir. Buning asosiy sabablaridan biri, banklar iqtisodiyotda vaqtinchalik boʻsh pul mablagʻlarini jalb qilish asosida oʻz faoliyatini tashkil etadi va tegishli daromadlarni shakllantiradi. Agar, banklarning resurs manbalari tarkibiga e’tibor qaratadigan boʻlsak, ushbu manbalarning 88-92 foizi jalb qilingan mablagʻlar hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu mablagʻlar bankning faoliyatini olib borishi va foyda olish maqsadida turili aktiv moddularga joylashtiriladi. Bu, albatta, bank operatsiyalari boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarnikiga nisbatan bir necha barobar riskli ekanligidan dalolat beradi.

Shunday ekan, bank risklari xususida gap ketganda, asosiy e’tiborni ushbu risklarning tabiati, mohiyati, kelib chiqish sabablari va ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlariga qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bank risklari bilan bog‘liq masalalar xorij iqtisodchi olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Ularning bu boradagi qarashlari va xulosalari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jumladan, banklarda kredit risklari bilan bog‘liq masalalar V.N.Yermanov, V.D.Krilova, M.D.Rozenberg, Ye.Ye.Rumyanseva, R.G.Olxova, D.M.Noton va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

O‘zbekistonda bank risklari bilan bog‘liq munosabatlar va muammolarning vujudga kelishi juda uzoq tarixga ega emas. Shu bois ham bank risklari bilan bog‘liq masalalar o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan yetarli darajada yoki keng ko‘lamda o‘rganilmagan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bank risklari juda keng qamrovli iqtisodiy tushuncha bo‘lib, uning tarkibiga bank faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish, foyda olish va boshqa jarayonlarda vujudga keladigan barcha risklar kiradi.

Tarixan risk tushunchasi dastlab insonlarga tabiiy hodisalar vaqtidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning salbiy oqibatlari sifatida o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan bo‘lsa, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi bilan risk tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida amal qila boshladi. Risk tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida bir qancha xorijiy va mahalliy iqtisodchilar tomonidan tadqiq qilinib, uning iqtisodiy mohiyati xususida turlicha ta’riflar keltirilgan.

Xususan, rossiyalik iqtisodchi A.V.Belyakov risk tushunchasiga iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi ta’rifni bergan: “Holatni qiziqish bilan kuzatib turgan subyekt uchun holat rivojlanib borishining natijasi noaniqligi sharoitida ishtirokchini salbiy oqibatlarga olib keluvchi variantlar mavjudligi ushbu holatning riskka bog‘liqligini bildiradi” [1].

Bizning fikrimizcha, muallifning mazkur ta’rifida iqtisodiy kategoriya sifatida aynan “risk” tushunchasiga emas, balki “risk bilan bog‘liq holat” tushunchasining mohiyati kengroq ochib berilgan. Chunki, ta’rifda ko‘proq holatni kuzatayotgan shaxs xususida so‘z yuritilgan, ushbu shaxs “holatni kuzatish bilan uning ishtirokchisiga aylanadi va bu holat uni salbiy natijalar”ga olib kelishi ta’kidlanadi.

Iqtisodchi Ye.B. Starodubseva fikriga ko‘ra “risk - bu yo‘qotishlarga olib boruvchi hodisalar ehtimolining qiymatdagi ifodasidir. Risk darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, foyda olish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Risklar joriy va kelgusidagi haqiqatda erishiladigan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar natijasida yuzaga keladi. Ular ijobiy bo‘lishi bilan birga, salbiy bo‘lishi ham mumkin. Shunday qilib, agar yo‘qotishlarga yo‘l qo‘yish mumkinligi oldindan ko‘zda tutilsa va undan o‘zini ehtiyot qilinsagina foyda olish mumkin bo‘ladi” , deb talqin qiladi [2].

Ye.B.Starodubseva tomonidan riskning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta’rif juda keng qamrovli bo‘lib, muallif uning mohiyatini ochib berish uchun uzundan-uzoq jumlani keltirgan. Shuningdek, biz muallifning “risklar joriy va kelgusidagi haqiqatda erishiladigan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar natijasida yuzaga keladi” degan fikriga ham to‘liq qo‘shila olmaymiz. Chunki, milliy iqtisodiyot va milliy valyutaning barqarorligi sharoitida risklar joriy va kelgusidagi haqiqatda erishiladigan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq sifatida namoyon bo‘lmasligi ham mumkin.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijasida, iqtisodiy adabiyotlarda, shu paytgacha risk to‘g‘risida aniq fikr mavjud emasligining guvohi bo‘ldik. Maqolada risk to‘g‘risida keltirilgan fikrlar, shuningdek, boshqa manbalardagi o‘rganishlar asosida riskga ta’rif bergan iqtisodchi olim va nazariyachilarni quyidagi uchta yo‘nalishda guruhlash mumkin degan xulosaga keldik.

Endi iqtisodiy kategoriya hisoblangan “risk”ning birmuncha xususiylashgan ko‘rinishi, ya’ni “bank risklari” va “bank risklarini diversifikatsiyalash” tushunchalarining iqtisodiy mazmunini ochib berishga, ularning turlarini tasniflashga va ahamiyatini ko‘rsatib berishga e’tiborimizni qaratmoqchimiz.

Tadqiqotlar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda bank risklarini diversifikatsiyalash masalasi bozor iqtisodiyotining joriy etilishi va yildan-yilga chuqurlashuvchi natijasida vujudga kelgan. Ma’lumki, 1990-yillarga qadar banklar davlat mulki asosida tashkil qilinganligi, shuningdek, o‘z faoliyatini asosan davlat korxonalari va tashkilotlari bilan bog‘liq holda olib borganligi bois ularda risk muammosi mavjud bo‘lmagan. Bu o‘z navbatida, uni chuqur tahlil qilishga zaruriyat tug‘dirmagan, 1990-yillarga kelib banklarda bozor iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonining chuqurlashuvi va iqtisodiyotning tobora globallashuvi bank risklarini baholash va ularni diversifikatsiyalashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Bu borada xorijlik va mahalliy iqtisodchilar o‘z ishlarida “bank risklari” tushunchasini tadqiq qilib, turlicha ta’riflarni shakllantirgan. Xususan, xorijiy iqtisodchilar Ye.V. Ioda, L.L. Meshkova, Ye.N. Bolotinalar tomonidan bank risklariga ta’rif be’rishda ikki tomonlama yondashilgan. Absolyut ma’noda “risk - o‘lchanilishi mumkin moddiy narsalar (jismoniy) va qiymat (pul mablag‘lari) ko‘rinishidagi yo‘qotishlar miqdorini aniqlaydi” deya qaralsa, nisbiy ma’noda “risk - tijorat bankining moliyaviy holatiga, faoliyatdagi resurslarining umumiy xarajatlariga yoki kutiladigan daromadiga (foydasiga) ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlari miqdori” , deya ta’kidlangan [3].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan nashr etilgan yuridik lug'atda "Kredit riski – qarz oluvchining kreditor oldidagi uzoq muddatli majburiyatlarni bajarmaslik riski, ya'ni berilgan qarz (kredit) qaytarilmasdan qoladi", deya asosiy e'tiborni bank faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan, kredit riskiga qaratmoqda. Albatta, bu fikrga biz ham qo'shilamiz, biroq masalaning ikkinchi jihati, risk faqat kredit bilan emas, balki bankning passiv operatsiyalari bilan ham bog'liqligi e'tibordan chetda qolgan.

Xuddi shuningdek, Rossiyaning boshqa iqtisodchi olimlari ham "kredit riski – kontragent shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarmasligi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan yo'qotishdir. Qarz oluvchi tomonidan asosiy summa va to'langan summani chiqarib tashlangandan so'ng qolgan foiz to'lovini to'lolmasligi kreditor uchun yo'qotilgan zarar sifatida baholanadi" , degan tarzda, riskni faqat kredit jarayoni bilan bog'lab qo'ygan [4].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bank risklari juda keng qamrovli iqtisodiy tushuncha bo'lib, uning tarkibiga bank faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish, foyda olish va boshqa jarayonlarda vujudga keladigan barcha risklar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida risklar bilan bog'liq munosabatlar asosan aktiv operatsiyalar jarayonida ro'y beradi. Biroq, ta'kidlash joizki, tijorat banklari barcha aktiv operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lmaydi. Xususan, tijorat banklarining riskga bog'liq bo'lgan asosiy aktiv operatsiyalari sifatida kredit, investitsiya, lizing, ijara va derevativlar bilan bog'liq operatsiyalarini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Banklarning ushbu aktiv operatsiyalari yuqori darajada riskga bog'liqligining boisi shundaki banklar ushbu operatsiyalar orqali o'zining daromadlarini shakllantiradi.

Bank risklarini diversifikatsiyalashda asosiy e'tibor, jalb etiladigan mablag'larni riskli aktivlarga joylashtirilgan moliyaviy resurslarni to'liq qaytishi va tegishli foydani shakllantirishga qaratiladi. Bank risklarini diversifikatsiyalashda ehtimollar nazariyasi va bank risklari nazariyasini biriktirgan holda tadbiq etish mexanizmi asosida vujudga keladi.

Bank risklarini diversifikatsiyalashda majburiyatlar va riskli aktivlar bo'yicha risklarni konsentratsiyalashuvini, ya'ni markazlashuviga yo'l qo'ymaslik muhim hisoblanadi.

Bank risklarini diversifikatsiyalashni turli me'yoriy mezonlar asosida tasniflash mumkin. Dastlab bank risklarini diversifikatsiyalashni subyektlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni mikrodarajada qaraydigan bo'lsak, bank risklarini mamlakat darajasida ta'sirini pasaytirish yuzasidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar makrodarajada o'rganilishi mumkin.

Maqolada amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganishlar natijasida bank risklarining iqtisodiy mohiyati ularning tamoyillarida yanada aniqroq namoyon bo'lishining guvohi bo'ldik. Shu bilan birga, bank risklarini diversifikatsiyalash tamoyillarini ishlab chiqishda va ularni amaliyotga joriy etishda har bir mamlakat qator omillarni hisobga olishi zarur degan fikrga keldik. Xususan, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- **milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi.** Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligi tijorat banklari moliyaviy resurslari bazasiga, ularning kreditlari holatiga, shuningdek, bank mijozlarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir qiladi. Bularning barchasi tijorat banklari operatsiyalari bo'yicha risk darajasining past yoki yuqoriligida namoyon bo'ladi;
- **milliy valyutaning barqarorligi.** Mamlakat milliy valyutasining barqarorligi, uni sotib olish qobiliyatining mustahkamligi tijorat banklari risklarining obyektlari va subyektlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mahalliy hisob-kitoblar va barcha bank operatsiyalari aynan milliy valyutada amalga oshirilib, ushbu operatsiyalar natijasi bo'yicha ko'riladigan iqtisodiy zarar yoki risk darajasining yuqori yoki pastligi aynan milliy valyutadagi qiymat bilan o'lchanadi;
- **aholi va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining mustahkamligi.** Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri hisoblangan ishonch bank risklarini samarali diversifikatsiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etib, aholi va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi qanchalik yuqori bo'ladigan bo'lsa ularning resurs bazasi shu darajada mustahkam bo'ladi, bu o'z navbatida tijorat banklarini likvidlik bilan bog'liq risk darajasini pasaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar va omillardan kelib chiqib, har bir mamlakatda bank risklarini diversifikatsiyalashda tegishli tamoyillar qo'llaniladi. Bizning nazarimizda, tijorat banklari risklarini diversifikatsiyalashda qator tamoyillar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagi rasmda keltirilgan.




1-rasm: Bank risklarini diversifikatsiyalashning asosiy tamoyillari[1]

1. Bank risklarining diversifikatsiyalashni shaffofliligini ta'minlash tamoyili. Bank risklarini diversifikatsiyalashda mo'ljaldagi samaraga erishishda ularning shaffofligini ta'minlanganligi muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor banklarning faoliyatida vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan risklarni e'tirof etishga qaratiladi. Biroq, xalqaro audit va reyting kompaniyalari yirik banklarning faoliyati bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarda yetarlicha shaffoflikni ta'minlamaganligi, shuningdek, ayrim holatlarda banklarning ichki buxgalteriya hisobotlarini yuritishda haqqoniylikga rioya etilmasligi oqibatida turli darajadagi risklarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunga misol sifatida vaqti-vaqti bilan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik tijorat banklarining iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushub qolayotganligi va ayrim holatlarda bankrotlik holatiga tushayotganligini keltirish mumkin.
2. Bank risklarini diversifikatsiyalash samaradorligini ta'minlash tamoyili. Bank risklarini diversifikatsiyalashda mo'ljaldagi samara va iqtisodiy natijaga erishilmaydigan bo'lsa, amalga oshirilgan barcha ishlar o'zining iqtisodiy ahamiyatini yo'qotadi. Shuning uchun ham bank risklarini diversifikatsiyalash yuzasidan qabul qilingan har qanday qaror bank risklarini pasaytirishda tegishli samarani ta'minlashi maqsadga muvofiq. Albatta, bunga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan, bank risklarini diversifikatsiyalash bo'yicha bankning ichki siyosati, bank risklarini diversifikatsiyalashga jalb etilgan mutaxassislarning bilim ko'nikmalari, mamlakatda mavjud qonuniy-huquqiy asosning mavjudligi va boshqa shu kabilar bank risklarini diversifikatsiyalash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Bank risklarini diversifikatsiyalashda mustaqillikning ta'minlanganlik tamoyili. Bu yerda gap tijorat banklari boshqaruv kengashi, tegishli boshqarma va filiallari aktivlari, asosan kreditlar yoki jalb qilinayotgan depozitlarning miqdori va foiz stavklari yuzasidan mustaqil qarorlarni qabul qilishi xususida ketmoqda. Shuni qayd etish joizki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan mamlakatimiz bank tizimida ham mazkur masalalar yuzasidan qabul qilinadigan qarorlar va ularni amalga oshirishda mustaqillikning ta'minlanmaganligi holatlari kuzatiladi. Bu o'z navbatida, bank risklarini diversifikatsiyalash, ular bilan bog'liq muammolarni oldini olish yuzasidan tegishli samarali mexanizmlarni ishlab chiqish imkoniyatini bermaydi.

Bizning nazarimizda, banklarda risklarni diversifikatsiyalash bo'yicha mas'ul xodimlarni to'g'ridan to'g'ri bank aksiyadorlari kengashiga hisobdorligini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bu, ularning bank faoliyatida vujudga keladigan qarorlarni qabul qilish, shuningdek, bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladigan operatsiyalarni bajarmaslik yuzasidan mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini beradi.

4. Risklarni diversifikatsiyalashning taqqoslanuvchanlik tamoyili. Bank faoliyati bilan bog'liq risklarni diversifikatsiyalashning turli tuman yo'llari mavjudki, bankning mas'ul mutaxassislari ularning eng samarali va optimal variantlarini tanlash imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. Buning uchun ushbu jarayonda qo'llaniladigan risklarni diversifikatsiyalash bo'yicha usullar taqqoslanuvchanlik holatiga ega bo'lishi

1 Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

maqsadga muvofiq boʻladi. Shu bilan birga, u yoki bu darajadagi bank riskidan kutilayotgan yoʻqotishlar miqdori bank risklari natijasida koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zahira fondi (kapitali) ga mutanosib ravishda boʻlishi kerak. Aks holda, riskli holatning salbiy oqibatlari yuzaga kelishi bankning daromadi yoki foydasiga taʼsir koʻrsatish orqali bankning oldida turgan rivojlanish imkoniyatlarini pasaytiradi.

5. Risklarni diversifikatsiyalashning daromadliligi va vaqt tejamkorligini taʼminlanganligi tamoyili. Bank risklarini diversifikatsiyalash boʻyicha qabul qilinadigan qarorlar oxir oqibatda bank uchun tegishli iqtisodiy manfaatdorligini taʼminlashi maqsadga muvofiq. Bank risklarini diversifikatsiyalash asoslari bank faoliyatidagi riskli holatlarning salbiy oqibatlari vujudga kelishi mumkin boʻlgan hollarda ulardan qochish imkoniyatlarini izlab topish hisoblanadi. Bank tomonidan qabul qilingan risklarni diversifikatsiyalash uchun qiladigan xarajatlari miqdori esa ushbu risklarning salbiy oqibatlari natijasida yoʻqotilishi mumkin boʻlgan qiymatdan oshmasligi lozim. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiya qanchalik uzoq muddat davom etsa ushbu operatsiya boʻyicha uni taʼqib qiluvchi risk ham shunga muvofiq uzoq muddat yashaydi. Natijada, ushbu risklarni diversifikatsiyalashni ham uzoq muddat davomida olib borilishiga boʻlgan zaruriyat yuzaga keladi. Bu esa risklarni diversifikatsiyalashdagi tejamkorlik mezoniga qarama-qarshi tarzda namoyon boʻladi.

Baʼzi qabul qilingan bank risklari boʻyicha ularni diversifikatsiyalash imkoniyatlari mavjud boʻlmasligi mumkin. Undan tashqari, riskli operatsiyani amalga oshirish bankning faoliyat yoʻnalishi va strategiyasida asosiy shart sifatida belgilab qoʻyilgan boʻlishi mumkin. Bunday hollarda qabul qilingan risklarni faqatgina ularni boshqa bir sugʻurta tashkiloti yoki mazkur operatsiyadagi hamkorlarga oʻtkazib yuborish imkoniyati boʻlgandagina bankning risk portfeliga kiritish mumkin boʻladi.

Iqtisodiyotda bank risklarini diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etib, ularni mikrodarajada va makrodarajada koʻrib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank risklarini diversifikatsiyalashning mikrodarajadagi ahamiyati quyidagi rasmda keltirilgan.




2-rasm: Banklarning risklarini diversifikatsiyalashning mikrodarajadagi ahamiyati[2]

Bank risklarini diversifikatsiyalashning makrodarajadagi ahamiyati sifatida mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligini taʼminlash va iqtisodiy oʻsishga bank tizimining ijobiy taʼsiri, milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlanishi va inflyatsiyaning meʼyoriy darajasini taʼminlanganligi, mamlakat savdo va toʻlov balansida ijobiy qoldiqning vujudga kelishi kabi holatlarni keltirish mumkin.

## XULOSA

Bizning nazarimizda, tijorat banklari risklarini diversifikatsiyalashning ahamiyatini mikro va makrodarajadagi jihatlari xususida yanayam kengroq toʻxtash mumkin. Biroq, mazkur masalalar maqolaning keyingi boʻlimlarida u yoki bu koʻrinishda tadqiq etilishini eʼtiborga olib, ular toʻgʻrisida batafsil toʻxtalmaslikga qaror qildik.

Xulosa qilib aytganda, bank risklari va ularni diversifikatsiyalash juda koʻp qirrali jarayon boʻlib, ushbu jarayonni samarali yoʻlga qoʻyilishi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini taʼminlash va ularning foyda darajasini oshirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

2 Tadqiqotlar natijasiga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Беляков А.В. Банковские риски: проблемы учета, управления и регулирования (2-е изд). Управленческая методическая разработка. – М: «БДЦ-пресс», 2004 г. – 256 с.
2. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2006, 494 с
3. Иода Е.В. Классификация банковских рисков и их оптимизация / Е.В. Иода, Л.Л. Мешкова, Е.Н. Болотина. Под общ. ред. проф. Е.В. Иода. 2-е изд., испр., перераб. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та. –2002. –120 с.
4. Рыхтикова Н. А. Анализ и управление рисками организации. –2 изд. М.: ФОРУМ, 2010. –240 с.
5. Поморина М.А. Управление рисками как составная часть управления активами и пассивами банка // Банковское дело. –1998. –№3. –С. 1217.
6. Петунии И.М., Поморина М.А. Методы оценки и управления процентным риском. //Банковское дело. –1999. – № 1. – С. 12-16.
7. Кисляков М. Кредитные риски коммерческого банка // Финансовый бизнес 1999. – № 4. – С. 19-22.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.